

KINOYA VA SARKAZMNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASIDAGI O'RNI

Abdurahmanova Muqaddas Tursunaliyeva,
f.f.d., prof. v.b.,
mabduraxmanova20@gmail.com
O'ZMU

Salohiddinova Muslima Qahramon qizi,
I kurs magistrant
salohiddinovamuslimakhon267@gmail.com
ToshDO'TAU

Annotatsiya. Maqola kinoya va sarkazmning nutqiy aktlar nazariyasidagi o'rni, kommunikativ vazifalari hamda ularni pragmatik jihatdan tahlil qilishning zamonaviy usullarini tahliliga bag'ishlangan. Sarkazm faqatgina ijobiy so'zni salbiy ma'noda ishlatish degani emas, balki u matn ostida yashirin ma'noni ifodalovchi murakkab jarayon bo'lib, uni anglash uchun suhbatdoshlar o'rtasidagi avvalgi muloqot va umumiy vaziyatga tayanish kerak. Kinoya va sarkazm ko'pincha so'zma-so'z ma'noga mutlaqo zid bo'lgan yashirin niyatni ifodalaydi va u mazah qilish yoki tanqidni yumshatish kabi ijtimoiy-pragmatik vazifalarni bajaradi. Tadqiqot kinoya va sarkazm qanday maqsadda ishlatilishi va u odamlarga qanday ta'sir qilishini zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida tushuntirib berishdan iborat. Maqolada xorijiy olimlarning sun'iy intellekt (CNN, LSTM, BERT) yordamida olib borilgan so'nggi tadqiqotlari o'rganildi va o'zaro taqqoslandi.

Kalit so'zlar: *nutqiy aktlar nazariyasi, kinoya, sarkazm, pragmatika, multimodal diskurs, tabiiy tilni qayta ishlash(NLP).*

Abstract. This article is devoted to the analysis of the role of irony and sarcasm in speech act theory, their communicative functions, and modern methods of their pragmatic analysis. Sarcasm is not merely the use of a positive word in a negative sense. Rather, it is a complex process that expresses a hidden meaning beneath the text. Understanding it requires relying on the prior communication

between the interlocutors and the general context. Irony and sarcasm often express a hidden intent that is completely opposite to the literal meaning, fulfilling socio-pragmatic functions such as mockery or mitigating criticism. The purpose of this study is to explain the intent behind the use of irony and sarcasm and their impact on people with the help of modern computer technologies. The article reviews and compares recent studies conducted by foreign scholars using artificial intelligence (CNN, LSTM, BERT).

Keywords: *speech act theory, irony, sarcasm, pragmatics, multimodal discourse, natural language processing (NLP).*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqatgina soʻzlar va qoidalar yigʻindisi emas, balki jonli muloqot vositasi sifatida oʻrganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada nutqiy aktlar nazariyasi alohida oʻringa ega. Ushbu nazariyaga koʻra, inson soʻzlaganda nafaqat maʼlumot beradi, balki maʼlum bir xatti-harakatni (iltimos qilish, buyurish, tasdiqlash yoki tanqid qilish) ham amalga oshiradi. Ayniqsa, kinoya va sarkazm kabi yashirin maʼnoga ega boʻlgan nutqiy aktlarni tahlil qilish bugungi kundagi muloqot jarayonlarini, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni toʻgʻri tushinishda ahamiyatlidir. Sarkazm – bu shunchaki soʻzlarni oʻz maʼnosiga teskari holatda ishlatish emas. U koʻpincha suhbatdoshni yengil masxara qilish, keskin tanqidni yumshatish yoki norozilikni bilvosita ifodalash uchun ishlatiladigan murakkab psixologik va lisoniy jarayondir [1:3658-3667]. Sarkazmda soʻzning (toʻgʻridan toʻgʻri) maʼnosi uning ostidagi asl niyatiga mutlaqo zid boʻladi. Shuning uchun ham, kompyuter dasturlari va anʼanaviy sunʼiy intellekt tizimlari faqatgina matnning oʻziga qarab uning sarkazm ekanligini tushunishga qiynaladi [2:587-634]. Bugungi raqamli asrda muloqot soʻzlar bilan emas, balki turli belgilar (emojilar), rasmlar va qisqa videolar (memlar) orqali ham ifodalanadi [3:21-31]. Shunga koʻra, kinoya va sarkazmni aniqlashda faqat gapni oʻqish yetarli boʻlmay qoldi. Suhbatning umumiy mavzusi, qurshovdagi gaplar va hattoki

muloqotda ishlatilgan kulgichlar (emojilar) ham sarkazmni to'g'ri ilg'ab olishga yordam beruvchi asosiy signallardir [1:3658-3667]. Jahon tilshunosligi va kompyuter texnologiyalarida, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo'nalishida sarkazmni avtomatik aniqlash bo'yicha qator izlanishlar olib borilmoqda. Xorijiy olimlar matndagi kinoyani to'g'ri topish uchun chuqur o'rganish (Deep Learning) modellari, jumladan, CNN, LSTM va BERT kabi zamonaviy sun'iy intellekt usullaridan muvaffaqiyatli foydalanishmoqda [2:587-634; 3:21-31]. Biroq, o'zbek tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasi asosida sarkazmning pragmatik xususiyatlarini xuddi shunday zamonaviy hisoblash usullari bilan bog'lab o'rganish bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli emas.

Kinoya va sarkazmning nutqiy aktlar nazariyasidagi o'rnini hamda muloqotdagi vazifasini xalqaro tajribalar (Scopus bazasidagi so'nggi maqolalar) asosida tahlil qilishdir. Shuningdek, maqolada sarkazmni zamonaviy kompyuter texnologiyalari (NLP modellari) yordamida qanday aniqlash mumkinligi solishtirma tahlil qilinadi. Bu orqali kelajakda o'zbek tilidagi yashirin ma'noli matnlarni to'g'ri tushunadigan va tahlil qiladigan “aqlli” dasturlarni yaratish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lishi maqsad qilingan. Olimlar tomonidan bu hodisani tahlil qilish uchun bir qator yondashuvlar taklif qilingan va bugungi kunda bu tahlillar kompyuter texnologiyalari (NLP) yordamida yanada takomillashib bormoqda. Kinoya va sarkazmni anglash murakkab jarayon bo'lib, bunda faqat so'zlar emas, balki ularning orqasidagi pragmatik va ijtimoiy ma'nolar muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar tomonidan bu hodisani tahlil qilish uchun bir qator yondashuvlar taklif qilingan va bugungi kunda bu tahlillar kompyuter texnologiyalari (NLP) yordamida yanada takomillashib bormoqda. Sarkazmni to'liq anglash uchun, avvalo, uning nutqdagi maqsadini tushunish lozim. Olimlarning ta'kidlashicha, sarkazm turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, amerikalik tilshunos E.Kamp sarkazmni bir nechta turlarga ajratadi. Bular fikrga asoslangan sarkazm, nutqiy-harakatli (yuz



ifodasi va ohangga tayanuvchi) sarkazm, ichki qarama-qarshilikka asoslangan sarkazm hamda qo'shimcha so'zli sarkazm. Bu turlarning barchasi vaziyatga yoki hissiyot va aytilayotgan so'z ziddiyatga asoslanadi. Sarkazm qaysi turga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, uning asosiy kuchi so'zlovchining ichki maqsadi (illokutiv jihati) bilan bog'liq. Uning ta'sir kuchi (perlokutiv jihati) esa tinglovchining shu yashirin ma'noni qay darajada to'g'ri tushunishida namoyon bo'ladi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari oddiy matnlarni yaxshi tahlil qila olsa-da, sarkazm va kinoyaga kelganda tez-tez xatoga yo'l qo'yadi. Buning sababi, hisoblash mashinalari asosan so'zlarning ustki (ijobiy yoki salbiy) tomonini o'qiydi, ammo ularning zamiridagi psixologik va pragmatik ma'noni topa olmaydi. Tadqiqotchi S. Poriya va uning hamkasblari tomonidan yaratilgan modellar (masalan, CNN+SVM) aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ular sarkazmni matndagi "hissiyotning keskin o'zgarishi" (sentiment shift) orqali izlashni taklif qilishgan [2:587-634].

Tilshunoslikda har qanday muloqot jarayoni (nutqiy akt) qatlamlarga bo'linadi. Bularning eng muhimlari: ustki qatlam (lokutiv akt – aytilgan so'zlar) va ichki qatlam (illokutiv akt – so'zlashdan ko'zlangan asl maqsad). Sarkazm va kinoya shunchaki ijobiy so'zni salbiy ma'noda ishlatish degani emas. Ular matnning ustki qatlami va ichki maqsadi o'rtasidagi keskin ziddiyatdan (konfliktidan) iborat bo'lgan murakkab jarayondir. Masalan, kimdir katta xatoga yo'l qo'yganda *“Zo'r ish bo'libdi!”* deyilsa, ustki qatlamda (lokutiv) maqtov aytilmoqda, ammo ichki niyatda (illokutiv) qattiq tanqid yashiringan bo'ladi. Demak, sarkazmni tushunish uchun kompyuterlar ham, insonlar ham so'zning o'ziga emas, balki so'z ortidagi yashirin maqsad va vaziyatga (pragmatik belgilarga) qarashi kerak bo'ladi. Aynan mana shu jihat sarkazmni oddiy hazil yoki yolg'ondan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir. Boshqa tomondan, I.A.Farha va V.Magdi arab tilidagi sarkazmni aniqlash uchun MARBERT modelidan foydalangan bo'lsa, H.Syao ingliz tilida

sarkazmni topish uchun BERT va Bi-LSTM modellarini birgalikda qo'llashni ilgari surgan [4]. Ushbu ilg'or tizimlarning afzalligi shundaki, ular har bir so'zni alohida o'qibgina qolmay, balki so'zlarning jumladagi oldingi va keyingi o'rniga qarab umumiy matnni tahlil qiladi (xuddi inson miyasi kabi). Bugungi kun ijtimoiy tarmoqlar muloqotida sarkazmni faqatgina yozma matn emas, balki matn va emojilar yig'indisi–“multimodal diskurs” deb baholash to'g'ri bo'ladi. M.A.Alkindi va boshqalarning arab tilidagi ijtimoiy tarmoq xabarlariga doir tadqiqotlarida emojilar nafaqat his-tuyg'uni ifodalaydi, balki matn ma'nosini butunlay o'zgartirib, sarkazmning asosiy signali sifatida xizmat qiladi [3:21-31]. Xuddi shunday, Y.Sha va G.Bruks tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham ijtimoiy tarmoqlardagi kinoyali izohlar tahlil qilingan. Unda foydalanuvchilar qat'iy va jiddiy matnni hazilomus belgilar (emojilar) yoki suratlar bilan biriktirib, o'ziga xos kinoya hosil qilishlari ochib berilgan [1:3658-3667]. Bu jarayon sun'iy intellekt tizimlariga faqatgina so'zlarni emas, balki vizual belgilarni ham matnning ajralmas qismi sifatida “o'qish” va taqqoslash vazifasini yuklaydi. Bu jarayon “Tushuntiriluvchi Sun'iy Intellekt”(XAI) yondashuvi amaliyotga tatbiq etilmoqdaki, u kompyuterning matnni nima sababdan sarkazm deb topganini insonlarga (masalan, qaysi so'z yoki emoji bunga sabab bo'lganini ko'rsatib) aniq izohlab beradi [2:587-634]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashirin niyatli nutqiy aktlarni to'g'ri baholash muloqotning ijtimoiy va psixologik tabiatini to'liq anglashni talab etadi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda suhbatdoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z fikrlarini nafaqat so'zlar, balki emojilar, GIFlar va qisqa videolar kabi qo'shimcha belgilar bilan birga (multimodal usulda) ifodalamoqdalar [3:21-31]. Bu holat matnni avtomatik tahlil qiluvchi sun'iy intellekt dasturlari oldiga yangi, murakkab vazifani qo'yadi. Mashina faqat matnni o'qib qolmasdan, balki gapning ohangini, holatini va qo'shib yuborilgan emojilarning yashirin ma'nosini ham “tushunishi” kerak bo'ladi. Xorijiy olimlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, CNN, LSTM va ayniqsa BERT kabi zamonaviy

modellar so'zlarni alohida-alohida emas, balki butun matnning qanday holatda (kontekstda) aytilganiga qarab tahlil qilgani uchun kinoyani topishda juda yuqori natijalarga erishmoqda [4]. Shuningdek, “Tushuntiriluvchi Sun'iy Intellekt” (XAI) usuli orqali kompyuter o'zining nima uchun bu matnni sarkazm deb baholaganini insonlarga aniq dalillar bilan ko'rsatib berishi bugungi tadqiqotlarning muhim yutuqlaridan biridir [2:587-634]. Ushbu xalqaro tajribalarga tayangan holda, kelgusida o'zbek tilshunosligida ham bir qator amaliy ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, xorijiy tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi kinoya va sarkazmni tahlil qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardagi matn va izohlardan iborat maxsus elektron ma'lumotlar bazalarini (datasetlarni) shakllantirish zarur. Ikkinchidan, o'zbek tilining o'ziga xos pragmatik xususiyatlarini, jumladan, “qoyil”, “boplabsiz”, “o'xshatib qo'yibsiz”, “battar bo'ling” kabi ifodalarni aniq tushunadigan, kinoyali so'zlarni aniq anglaydigan milliy sun'iy intellekt modellarini o'rgatish va amaliyotga joriy etish kerak. Shuningdek, izlanishlarda faqatgina yozma matn bilan cheklanib qolmasdan, o'zbek internet foydalanuvchilari ko'p ishlatadigan emojilar va ularning matn ma'nosiga ta'sirini ham multimodal (kompleks) tarzda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tilshunoslikdagi nutqiy aktlar nazariyasini sun'iy intellekt texnologiyalari bilan o'zaro bog'lab o'rganish kelajakda o'zbek tilidagi yashirin ma'noli matnlarni to'g'ri tushunadigan va kompyuterlarning insonning asl niyatini aniq anglashiga yordam beradigan aqlli dasturlarni yaratish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maqolada kinoya va sarkazmning nutqiy aktlar nazariyasidagi o'rni hamda ularni kompyuter texnologiyalari (NLP) yordamida tahlil qilishning bugungi holati o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sarkazm shunchaki so'zlarni teskari ma'noda ishlatish emas, balki chuqur ijtimoiy va pragmatik maqsadni ifodalovchi murakkab muloqot usulidir. Xorijiy olimlar tajribasi (Scopus maqolalari tahlili) shuni ko'rsatdiki, CNN, LSTM va ayniqsa

BERT kabi zamonaviy “chuqur o'rganish” (Deep Learning) modellari matndagi kinoyani topishda juda yuqori natijalarga erishmoqda [4]. Sababi, bu modellar so'zlarni alohida-alohida emas, balki butun matnning qanday holatda (kontekstda) aytilganiga qarab tahlil qiladi. Shuningdek, Tushuntiriluvchi Sun'iy Intellekt (XAI) ning joriy etilishi kompyuterning nega aynan shu matnni “sarkazm” deb hisoblaganini insonlarga dalillar bilan ko'rsatib berishga xizmat qilmoqda [2:587-634].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. AlKindi M.A., Abdallah N.O. Machine Learning-Based Irony Detection and Sentiment Analysis in Arabic Tweets with Emojis, 2025.
2. Camp E. Sarcasm, pretense, and the semantics/pragmatics distinction, 2012.
3. Farha I.A., Magdy W. Benchmarking transformer-based language models for Arabic sentiment and sarcasm detection, 2021.
4. Gao X., Nayak S., Coler M. Spoken in jest, detected in earnest: A systematic review of sarcasm recognition multimodal fusion, challenges, and future prospects, 2025.
5. Poria S., Cambria E., Hazarika D., Vij P. A deeper look into sarcastic Tweets using deep convolutional neural networks, 2016.
6. Sha Y., Brookes G. Multimodal irony in public responses to digitally mediated NHS COVID-19 messaging, 2026.
7. Subait W.B., Asiri M.M., Alzaidi M.S.A. and others.. Artificial Intelligence-based Natural Language Processing for sarcasm detection and classification on Arabic Corpus, 2025.
8. Xiao H., Luo L. An Automatic Sentiment Analysis Method For Short Texts Based on Transformer-BERT Hybrid Model, 2024.